

QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Viloyatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha shahar va tumanlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi ma'lumotlar bazasi asosida 2020-yil 1- aprel holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

11 141



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 527



Oilaviy korxonona

175



Unitar korxonona

8 968



Xususiy korxonona

45




Aksiyadorlik jamiyati

315




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxonona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonolari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida, birlikda)






Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-mart oylarida 1 271 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 698 ta, xususiy korxonalar – 311 ta, oilaviy korxonalar – 198 ta, muassasalar – 32 ta va boshqalar – 32 tani tashkil etdi.


Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(1-aprel holatiga koʻra)



Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-aprel holatiga koʻra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga koʻra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 3 570 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 22,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari koʻpayishining asosiy omili boʻlib (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 23,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,8 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 12,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,2 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – 3,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 4,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) oʻsishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 098 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 10,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 71,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 18,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 11,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 20,9 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 367 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga oshgan. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 17,4 % ga (jami savdodagi ulushi 67,9 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 17,0 % ga (jami savdodagi ulushi 24,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 29,1 % ga (jami savdodagi ulushi 7,6 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
602 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash
18 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
8 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



89

yashash bo'yicha xizmatlar




1 099

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni 1 188 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 22,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 27,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 300 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,1 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 8,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,3 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 35,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,0 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 10,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,7 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 85,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 33,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,3 %), aloqa xizmatlarning – 21,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,7 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 1 527 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 879 taga yoki 73,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 462 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 864 taga yoki 69,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 198 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 192 taga yoki 3,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 141 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2131 taga yoki 23,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 806 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1933 taga yoki 21,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 698 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 216 taga yoki 76,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 208 tani tashkil etib, ulardan 205 tasi yoki 98,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 93 taga yoki 80,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 13 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida o'sish dinamikasi

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni yillar kesimida o'sish dinamikasi

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida o'sish dinamikasi

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	445	560	864	1462
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	103	100	157	232
Sanoat	115	154	258	486
Qurilish	10	12	15	17
Savdo	79	95	152	308
Tashish va saqlash	4	9	10	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	86	109	171	268
Axborot va aloqa	2	2	2	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	14	23	34
Boshqa turlar	36	65	76	99

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qashqadaryo viloyati	205	149	56
Qarshi sh.	55	45	10
Shahrisabz sh.	5	1	4
tumanlar:			
G'uzor	11	9	2
Dehqonobod	12	9	3
Qamashi	13	8	5
Qarshi	15	9	6
Koson	18	12	6
Kitob	16	11	5
Mirishkor	5	4	1
Muborak	9	7	2
Nishon	15	13	2
Kasbi	5	3	2
Chiroqchi	8	7	1
Shahrisabz	5	4	1
Yakkabog'	13	7	6

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (20,9 %) va Shahrisabz (6,3 %) shahar, G'uzor (4,7 %), Dehqonobod (4,9 %), Qamashi (6,7 %), Qarshi (7,8 %), Koson (7,7 %), Kitob (6,6 %), Mirishkor (3,4 %), Muborak (3,5 %), Nishon (3,9 %), Kasbi (4,0 %), Chiroqchi (8,3 %), Shahrisabz (4,8 %), Yakkabog' (4,8 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (19,5 %) va Shahrisabz (5,4 %) shahar, G'uzor (4,2 %), Dehqonobod (6,0 %), Qamashi (6,2 %), Qarshi (7,5 %), Koson (7,4 %), Kitob (5,2 %), Mirishkor (4,4 %), Muborak (3,8 %), Nishon (6,7 %), Kasbi (4,1 %), Chiroqchi (10,6 %), Shahrisabz (4,0 %), Yakkabog' (5,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar kesimida soni *(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning shahar va tumanlar kesimida soni *(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (26,9 %) va Shahrisabz (4,8 %) shahar, G'uzor (4,3 %), Dehqonobod (1,8 %), Qamashi (6,8 %), Qarshi (7,1 %), Koson (10,5 %), Kitob (4,4 %), Mirishkor (4,3 %), Muborak (4,7 %), Nishon (3,7 %), Kasbi (4,0 %), Chiroqchi (7,6 %), Shahrisabz (3,8 %), Yakkabog' (5,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sb borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha soni (2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (21,2 %) va Shahrisabz (5,1 %) shahar, G'uzor (7,6 %), Dehqonobod (1,0 %), Qamashi (6,1 %), Qarshi (8,6 %), Koson (6,6 %), Kitob (1,0 %), Mirishkor (0,3 %), Muborak (3,5 %), Nishon (2,5 %), Kasbi (4,5 %), Chiroqchi (20,2 %), Shahrisabz (7,1 %), Yakkabog' (4,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header, there is a navigation menu with categories like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services such as 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form where a user can enter their 'STIR kodini kiriting' (STIR code) and 'Rasmdagi kodni kiriting' (code from the image). A sample image of a code '99831k' is shown with the instruction 'Kodni yangilash uchun rasimga bosing'. A 'Qidiruv' (Search) button is also present.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(71) 230-84-10